

BOSHLANG‘ICH SINIF AQLI ZAIF O‘QUVCHILARINING O‘QUV-IJTIMOIIY FAOLIYATINI PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH

Arslanova Madinaxon Mansurovna
MTTDMQTMOI

“Maktabgacha va inklyuziv ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21901503>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarining o‘quv-ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishda pedagog kompetensiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogning metodik, psixologik, kommunikativ hamda korreksion kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, maxsus ta’lim, inklyuziv ta’lim, aqli zaif o‘quvchilar, korreksion pedagogika, ijtimoiy faoliyat, pedagogik mahorat.

Аннотация. В статье проанализированы роль и значение профессиональных компетенций педагога в эффективной организации учебно-социальной деятельности обучающихся с интеллектуальными нарушениями младшего школьного возраста. Обосновано, что развитие методической, психологической, коммуникативной и коррекционно-педагогической компетентности педагога является одним из ключевых факторов повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: компетенция, компетентностный подход, специальное образование, инклюзивное образование, обучающиеся с интеллектуальными нарушениями, коррекционная педагогика, социальная активность, педагогическое мастерство.

Abstract. This article examines the role and significance of teachers' professional competencies in the effective organization of the educational and social activities of primary school students with intellectual disabilities. It substantiates that the development of teachers' methodological, psychological, communicative, and corrective-pedagogical competencies is a key factor in improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: competence, competency-based approach, special education, inclusive education, students with intellectual disabilities, corrective pedagogy, social activity, pedagogical competence.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida inklyuziv va maxsus ta’lim tizimini takomillashtirish ta’lim sohasidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 4) barcha insonlar uchun inklyuziv, adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash hamda butun hayot davomida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi [2]. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, ayniqsa alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash salohiyatini rivojlantirishni talab etadi.

UNESCO ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning samaradorligi, birinchi navbatda, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, individuallashtirilgan ta’limni tashkil eta olish mahorati hamda har bir o‘quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim muhitini yaratish qobiliyati bilan belgilanadi [1].

Mamlakatimizda ham alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun sifatli ta’lim muhitini shakllantirish, ularning ta’lim olish huquqini ta’minlash hamda inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich keng joriy etishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, maxsus pedagogika va korreksion ta’lim texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, shuningdek, ta’lim jarayonida zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda [3]. Bu esa xalqaro talablar hamda milliy ta’lim siyosatining o‘zaro uyg‘unligi asosida maxsus ta’lim tizimi samaradorligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Boshlang‘ich sinf tahsil olayotgan aqli zaif o‘quvchilarning psixofiziologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida talablarni belgilaydi. Mazkur toifadagi o‘quvchilarning diqqati, xotirasi, nutqi, tafakkuri hamda bilish jarayonlarida kuzatiladigan o‘ziga xosliklar pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, maxsus pedagogik bilim, korreksion texnologiyalarni qo‘llash mahorati hamda amaliy kompetensiyalarni talab etadi.

Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga muvofiq pedagog endi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, korreksion-rivojlantiruvchi muhit yaratuvchi, o‘quvchining shaxsiy

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi hamda uning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi mutaxassis sifatida qaraladi [5.2015: B.]. Shu bois pedagog kompetensiyalarini rivojlantirish maxsus ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pedagogning metodik kompetensiyasi o'quv materialini o'quvchilarning psixofiziologik imkoniyatlariga moslashtirish, differensial va individual ta'limni tashkil etish, innovasion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda interfaol metodlarni maqsadli qo'llash orqali ta'lim sifati va korreksion ishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xususan, ko'rgazmalilik, amaliy mashqlar, rolli o'yinlar va kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog faoliyatida psixologik kompetensiya ham muhim o'rin tutadi. Chunki aqli zaif o'quvchilarning emosional holati, motivatsiyasi, qiziqishlari va individual ehtiyojlarini inobatga olmasdan turib ta'lim jarayonida yuqori natijaga erishish mushkul. Shu nuqtai nazardan pedagog har bir o'quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam tahlil qilishi, ijobiy psixologik muhit yaratishi hamda o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishi lozim.

Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya ham korreksion-pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali ta'lim jarayoni pedagog, o'quvchi, ota-ona, psixolog, logoped va defektolog o'rtasidagi tizimli hamkorlik asosida tashkil etilganda yuqori natija beradi. Bunday hamkorlik bolaning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlash bilan birga uning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayot ko'nikmalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Korreksion-pedagogik jarayonda kompetentli pedagog o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, mehnat faoliyatiga tayyorgarligi hamda hayotiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga e'tibor qaratadi [4. 1999: B.133]. Bu jarayonda ta'lim, tarbiya va korreksiyaning uzviyligi ta'minlanib, har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari va rivojlanish ehtiyojlari inobatga olinadi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega pedagoglar faoliyat yuritadigan maxsus ta'lim muassasalarida aqli zaif o'quvchilarning bilish faolligi, ijtimoiy munosabatlari, mustaqil hayot ko'nikmalari va ta'lim natijalari nisbatan yuqori darajada shakllanadi. Bu esa pedagog kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, ularning malakasini oshirish hamda innovasion korreksion texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning o'quv-ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagog kompetensiyalarining o'zaro bog'liq modeli takomillashtirildi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida korreksion-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar hamda amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari pedagogning kasbiy kompetensiyasi boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning o'quv-ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Metodik, psixologik, kommunikativ va korreksion kompetensiyalarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarning bilish faolligini faollashtirish, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish hamda mustaqil hayotga tayyorgarligini ta'minlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Shu munosabat bilan maxsus ta'lim muassasalari pedagoglarining kompetensiyalarini baholash mezonlarini takomillashtirish, ularning malakasini uzluksiz oshirish, innovasion pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish hamda ilmiy-metodik ta'minotni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, pedagog kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish maxsus ta'lim sifati, korreksion-pedagogik jarayon samaradorligi hamda aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ilg'or xorijiy va milliy pedagogik tajribalarni integratsiya qilish hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan innovasion modellarni amaliyotga joriy etish ustuvor ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. Paris, 2005.
2. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. UNESCO, 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
4. Гонеев А.Д. Основы коррекционной педагогики / А. Д. Гонеев. – М: Академия, 1999. – 272 с.

стр-113

5. Дмитриев А.А. О подготовке кадров для системы специального и инклюзивного образования в свете его модернизации // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. 2015. № 4.